

**O'ZBEKİSTONNING PARIJ BITIMIGA
QO'SHİLISHI VA GLOBAL İQLİM
O'ZGARİSHLARIGA QARŞI KURASHİSH
BO'YİCHA HAMKORLIKNING AHAMIYATI**

Hikmatjon Kenjayevich Avezov

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasi tayanch doktoranti

**UZBEKİSTAN'S ACCESSION TO THE PARIS AGREEMENT
AND THE IMPORTANCE OF COOPERATION IN THE
FIGHT AGAINST GLOBAL CLIMATE CHANGE**

Hikmatjon Kenjaevich Avezov

PhD Student (Base Doctoral Researcher), Department of «History of Uzbekistan», Faculty of History, National University of Uzbekistan

**ПРИСОЕДИНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА К ПАРИЖСКОМУ
СОГЛАШЕНИЮ И ЗНАЧЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА В
БОРЬБЕ С ГЛОБАЛЬНЫМ ИЗМЕНЕНИЕМ КЛИМАТА**

Хикматжон Кенжаевич Аvezов

*Базовый докторант кафедры «История Узбекистана»,
исторический факультет, Национальный университет
Узбекистана*



E-mail:

avezovhikmatjon@gmail.com

Orcid: 0009-0000-6829-1252

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Parij bitimiga qo'shilishi, uning milliy darajadagi majburiyatlar, amalga oshirilayotgan choralar hamda xalqaro hamkorlikning ahamiyati keng yoritiladi. O'zbekistonning ushbu global tashabbusning muhim ishtirokchisiga aylanishi jarayonida olgan majburiyatlarining bajarilishi bilan bog'liq ma'lumotlar xronologik tarzda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Parij bitimi, xalqaro hamkorlik, issiqxona gazlari, atrof-muhit, iqlim o'zgarishlari, NDC, yashil energetika.

Аннотация: Данной статье подробно освещается присоединение Узбекистана к Парижскому соглашению, его обязательства на национальном уровне, принимаемые меры, а также важность международного сотрудничества. Хронологически анализируется процесс становления Узбекистана ключевым участником этой глобальной инициативы, особое внимание уделяется выполнению взятых обязательств.

Ключевые слова: Парижское соглашение, международное сотрудничество, парниковые газы, окружающая среда, изменение климата, ОНУВ (Определяемые на национальном уровне вклады), зеленая энергетика.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan's accession to the Paris Agreement, its nationally determined commitments, ongoing implementation measures, and the significance of international cooperation. The study chronologically examines Uzbekistan's transformation into a key participant in this global initiative, with a focus on the fulfillment of its obligations.

Keywords: Paris Agreement, international cooperation, greenhouse gases, environment, climate change, NDC (Nationally Determined Contributions), green energy.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Global iqlim o'zgarishlari XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biridir. Atmosferaga issiqxona gazlarining chiqindilari ortib borishi natijasida Yerdagi o'rtacha harorat oshib, iqlimning o'zgarishi global ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy xavf tug'diradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun jahon hamjamiyati 2015-yilda Parij bitimini qabul qildi. Ushbu hujjat global haroratni sanoat inqilobidan oldingi davrga nisbatan 2 °C dan oshirmsaslik, hattoki 1,5 °C darajagacha cheklash maqsadini belgilaydi [1].

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekiston Parij bitimiga 2017-yil 19-aprel kuni imzo chekdi va 2018-yil 27-iyun kuni uni ratifikatsiya qildi [5]. Ushbu qaror iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda milliy siyosatni global standartlarga moslashtirish istagini xalqaro hamjamiyat oldidagi o'ziga hos bir namoyishi bo'ldi. Mamlakatimiz Parij bitimi doirasida quyidagi asosiy majburiyatlarni bajarish vazifasini oldi:

Issiqxona gazlari va sanoat tarmoqlarining atmosferaga chiqaradigan chiqindilari miqdorinini kamaytirish maqsadida 2030-yilga kelib milliy darajada aniqlangan hissa (NDC)ga ko'ra, O'zbekiston 2010-yil darajasiga nisbatan yalpi ichki mahsulotga (YAIM) bog'liq ravishda 35% gacha issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirishni maqsad qilgan [3].

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va shu bilan birgalikda quyosh, shamol va gidroenergetika resurslaridan foydalanishni kengaytirish orqali energiya tizimini diversifikasiya qilish, yashil iqtisodiyotga o'tish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishni hisobga olgan holda barqaror rivojlanishni ta'minlash rejalashtirilgan. O'zbekiston Parij bitimi maqsadlarini amalga oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni qabul qildi, jumladan energetika sektoridagi islohotlar buning yorqin misoli bo'ladi, O'zbekiston hukumati 2030-yilga borib quyosh va shamol energetikasidan 8 GW quvvatli elektr energiyasini ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda[4].

2022-yilda "Yashil energetika strategiyasi" qabul qilindi. Bu strategiya qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishni va energiya samaradorligini oshirish va bu orqali

mamlakatimizning xalqaro maydonagi imidjini muhtahkamlashni nazarda tutadi. Yer va suv resurslarini muvofiq tarzda boshqarish ishini tashkil qilish orqali, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha qator xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalarining qo'llanish ko'lamini kengaytirish maqsadida mazkur intensiv texnologiyaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish agrar sektorda ilg'or sug'orish usullarini joriy etishning muhim omili hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Xalqaro hamkorlik yuqorida davlat oldiga qo'yilgan vazifalarni bajirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyalarda faol qatnashmoqda. Jahan banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator "yashil" loyihalar amalga oshirilmoqda [5].

O'zbekistonning iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikdagi ishtiroti katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, Parij bitimi doirasidagi hamkorlik quyidagilarni ta'minlaydi:

Mamlakat xalqaro donor tashkilotlardan iqlim loyihalari uchun mablag' olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, "Yashil iqlim jamg'armasi" orqali bir qator loyihalar shu paytgacha moliyalashtirilgan va bundan buyon ham moliyalashtiriladi [4].

Innovatsion texnologiyalarni mamlakatga jalb qilish va mahalliy sharoitga moslashtirishda xalqaro hamkorlik muhim rol o'ynaydi.

Mintaqaviy iqlim o'zgarishlarini o'rganish va prognozlashda xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyati oshadi.

Mamlakatimizda mavjud o'rmon xo'jaliklarini saqlab qolish va antropogen omillar sabab ziyon ko'rganlarini qayta tiklash, xususan, Orolbo'yidagi hududida ko'chatlar ekish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashda xalqaro yordam olish orqali mazkur vazifalarda sezilarli natijalarga erishish ehtimolini oshiradi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O'zbekistonning Parij bitimi doirasidagi faoliyati nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, iqlimga mos keluvchi "yashil" texnologiyalarning joriy etilishi iqtisodiy

samaradorlikni oshirish barobarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tan narnini pasayishida muhim omil bo'lmoqda[5].

Mamlakat global ekologik muammolarga yechim topishga hissa qo'shayotganini namoyon qilib, o'zining xalqaro doiralardagi obro'sini oshirdi. Buning natijasida O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rni oshib bormoqda. Aholining hayot sifatini yaxshilash ijtimoiy himoya bilan uzviy bog'liq tarzda toza havo, toza suv resurslariga ega bo'lish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali fuqarolar farovonligi ortadi. Shu maqsadda Juhon bankining "Toshkent uchun havo sifatini baholash" hisoboti va O'zbekistonda havo sifatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Juhon banki hamda O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan O'zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ko'magida ishlab chiqilgan hisobotlarda mintaqalari bilan muloqotni xabardor qilish va havo sifati bo'yicha keng qamrovli mintaqaviy bilim va hamkorlik platformasiga yo'l ochish maqsadida Markaziy Osiyodagi havo sifati bo'yicha qator tadqiqotlarning olib borilishi zarurligi alohida ta'kidlandi.

O'zbekistonda va butun dunyo bo'ylab havo sifati bilan bog'liq kasalliklar va bevaqt o'lim holatlarining aksariyati PM 2.5 bilan bog'liq bo'lib, Juhon Sog'lijni Saqlash Tashkiloti (JSST) sog'liq uchun eng jiddiy tashvish beruvchi iflosantiruvchi sifatida aniqladi. Toshkent, Markaziy Osiyoning boshqa shaharlari kabi, [IQAir](#) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning eng ifloslangan shaharlari qatoriga kiradi. O'zbekiston hukumati, shuningdek, AQM mahalliy, milliy va mintaqaviy darajada hamkorlikda, keng qamrovli va ko'p tarmoqli sa'y-harakatlarni talab qiladigan muammo ekanligini tan oladi. 2024-yil 21-mayda O'zbekiston Sog'lijni saqlash vazirligi turar-joy binolari havosi sifati bo'yicha yangi PM2.5 standartini qabul qildi, bu JSST tavsiyalariga mos keladi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan dastlabki oraliq maqsad va havo sifatini yaxshilash yo'lidagi ulkan bosqichdir.

XULOSA **(ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**. O'zbekistonning Parij bitimiga qo'shilishi mamlakatning iqlim o'zgarishlariga qarshi global hamkorlikdagi faol ishtirotini namoyish etadi. Mamlakat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ham jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, iqlimga mos keluvchi siyosatni davom ettirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Parij bitimi doirasidagi majburiyatlar milliy darajada amalga oshirilayotgani mamlakatni "yashil" iqtisodiyot sari yo'naltimoqda va bu borada xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 02.06.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. 14.08.2023.
3. O'zbekiston Respublikasining Parij kelishuvini tasdiqlash to'g'risidagi qonuni. *O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2018.*
4. Milliy darajada belgilangan majburiyatlar (NDC) *O'zbekiston Respublikasining BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasiga taqdim etgan hisoboti.* 2021.
5. Parij kelishuvni. *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha asosiy hujjati (UNFCCC).* 2015.